

"YOSHLAR O'RTASIDA TA'LIM TARBIYANI RIVOJLANTIRISH"

Jummayev Davlat Baxtiyorovich

*Surhandaryo viloyati boysun tumani 25-umumtalim
maktabining 11-snif o'quvchisi
Tel:+998-88-840-08-19*

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash ularni olib borayotgan islohotlarining faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Shu jumladan Yoshlarni tarbiyalash va ularning ma'naviy barkamoligini shakllantirish vazifasi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligi hech kimga sir emas. Islom ta'limotida ham yoshlar tarbiyasi juda muhim o'rin tutadi. Islomning dastlabki o'n uch yilida, ya'ni Makka davrida Muhammad Sallalohu alayhi va sallam insonlarning ongu shurida Allohning yakkayu yagonaligini sindirish barobarida ularga odob-axloq masalalarini o'rgatishga alohida e'tibor qaratganlar. "Sayyoramizning ertangi" kuni, faravonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liqdir.

"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu yoshlarimizning odob-axloq, yurish turishi bir so'z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli yoshlar o'z davrining talabalari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib o'zligiga sodiq qolishga undalib tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va yana tarbiya hisobidan", deya ta'kidladilar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev

Mamlakatimiz aholisining 30 foizi 14dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Shu bilan birga yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa turli yot o'latlarga qarshi immunitet ham shuncha kuchli bo'ladi. Aytish joizki, davlatimiz rahbari ijtimoiy ma'naviy-ma'rifiy sohalarida ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5- ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Ana shu ezgu g'oya Prezidentimizning Sirdaryo viloyatiga tashrifi chog'ida boshlanib qisqa vaqtda ulkan ishlar amalga oshirildi. Mazkur hududagi tuman va shaharlar kutubxonalariga 300 ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazilib berildi. Musiqa va san'at maktablariga yetkazilib berildi. Musiqa va san'at maktablariga cholg'u asboblari bilan ta'minlandi. Bu ishlar Namangan viloyatida ham davom ettirib Ma'rifat karvoni" tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazilib berildi. Ushbu 5 tashabbus xalqimiz ayniqsa yoshlarimiz tomonida katta qiziqish bilan kutib olindi.

Prezidentning 2021 yil 13 iyuldagi PF-6260-son Farmoniga muvofiq yoshlar tomonidan ko'tarilgan taklif va tashabbuslar, muammo hamda masalalar yechimi yuzasidan har yili Yoshlar kuni arafasida Hukumatning dasturi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shahar hokimliklarining alohida hududiy dasturlari qabul qilinadi.

Mazkur dasturlar yoshlarning bilim va kasb-hunar egallashi, ular uchun munosib ish va turmush sharoitini yaratish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlardan iborat bo'ladi.

Hujjat bilan Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2022-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturi tasdiqlandi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar bilan ishlash, jumladan, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

“yoshlarning bo'sh vaqti - yetakchining ish vaqti” tamoyili asosida tashabbus olimpiadasini o'tkazish, yoshlar bilan “mahallabay” ishlash tizimini joriy etish;

ko'chama-ko'cha tadbir va loyihalar, tanlovlar, musobaqalar hamda to'garaklarni tizimli ravishda tashkil etish;

yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, joylarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish;

yoshlar infratuzilmalarini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, yoshlar siyosatini amalga oshirishda OAVning rolini kuchaytirish chora-tadbirlarini belgilash.

Prezidentning 19.01.2022 yildagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Hujjat O'zAda e'lon qilingan.

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish maqsadida har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etiladi.

Quyidagilar yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari etib belgilandi:

yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish;

yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish;

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish;

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash;

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlash.

Yetakchilar o'ziga birlashtirilgan mahallalarda maqom, baxshichilik va estrada bo'yicha tanlovlarni, "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyot festivalini o'tkazadi, shuningdek, mini-futbol, voleybol, basketbol, stol tennis, velosport, yugurish, shaxmat, shashka, badminton, kamondan otish bo'yicha musobaqalarni tashkil etadi, salomatlik uchun 5 000 qadam yurish marafoni hamda "Yosh ekolog" aksiyasini o'tkazadi.

Har chorakda mahallada yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishda yuqori natijadorlikka erishayotgan mamlakat bo'yicha eng ilg'or 100 nafar yetakchilar bir oylik ish haqiga teng miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Belgilanishicha:

yoshlar masalalari bilan shug'ullanish va hududlarda ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish shaxsan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) hokimlari tomonidan amalga oshiriladi;

yetakchilarning hamda Yoshlar ishlari agentligining mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash bo'linmalari xodimlarining shtat birliklari umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 10 008 nafar yoshlar yetakchilari shtat birliklarini qisqartirish hisobidan shakllantiriladi;

yetakchi lavozimiga nomzodlar tumanlar (shaharlar) hokimlari boshchiligidagi tanlov komissiyalarini shakllantirish orqali ochiq tanlovlar asosida ishga qabul qilinadi;

yetakchi lavozimiga yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega, yoshlarni ergashtira oladigan, shaxsiy fazilatlar bilan namuna ko'rsatgan, fidoyi, sadoqatli va vatanparvar nomzodlar tayinlanadi.